

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY**

Zilola Dilmurodova

Teacher of Chirchik State Pedagogical University  
dilmurodovazilola16@gmail.com

**Abstract**

The article analyzes the pedagogical and psychological interpretation of ability.

**Keywords:** ability, educational process, teacher, student, interest, psychology.

**QOBILIYATNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MOHIYATI**

Dilmurodova Zilola Davron qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi  
dilmurodovazilola16@gmail.com

**Annotatsiyasi:**

Maqolada qobiliyatning pedagogik hamda psixologik talqini tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, ta'lim jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi, qiziqish, psixologiya.

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА СПОСОБНОСТЕЙ**

Дилмуродова Зилола Даврон кизи

Преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета  
dilmurodovazilola16@gmail.com

**Аннотация:**

В статье анализируется педагогико-психологическая трактовка способностей.

**Ключевые слова:** способности, учебный процесс, учитель, ученик, интерес, психология.

Qobiliyatlar bu shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan yakka psixologik xususiyatlaridir. Yana shuni aytish mumkinki, qobiliyat insonning boshqa shaxslarga qaraganda biror bir faoliyatni tez, oson va sifatli bajara olishidir.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Demak insonning qobiliyati bizni ta'lim jarayonida beriladigan bilimlarni qanchalik o'zlashtirishimizga bog'liqdir. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi.

Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi ko'rsatadi. Bolalarda namoyon bo'ladigan rassomchilikka bo'lgan qobiliyati uning buyuk rassom sifatida namoyon bo'lishi uchun imkoniyatdir albatta, ammo namoyon bo'lgan qobiliyatni o'z vaqtida anglamasik, maxsus ta'lim berilmaslik, qat'iyatsizlik, turli xil rassomchilik qurollari bilan

ishlamaslik, qobiliyatni rivojlantirmaslik albatta bu qobiliyatni taraqqiy etmay turib oq so'nib ketishi asos bo'ishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi deyilgan fikrni juda asosli deb hisoblaymiz. Chunki tarixga nazar tashasak, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi.

V.Surikovni (rus rassomi) Sank Peterburg rassomchilik Akademiyasiga o'qishga qabul qilinmaganida, u bir yilgacha chizish ustaxonasida rassomchilik ko'nikmalarini egallaydi va kelasi yilgi xuddi o'sha imtihondan yiqitgan domlalar uni Akademiyaga o'qishga qabul qiladilar. Veronika 1951 yilda Janubiy Germaniyada tug'ilgan, u hamma qatori oddiy bola bo'lgan, noyob qobiliyatlari esa 1972 yilda namoyon bo'la boshlagan, u o'sha paytda Shtutgart universitetining talabasi edi. U bir mil uzoqlikdagi odamni ko'ra olardi va obyektgacha qancha masofa borligini aytib bera olardi.

Veronikaning ko'zini teleskop bilan tenglashtirdilar. Aytishiga qaraganda, u muayyan bir rangning qanday tuslardan iborat ekanligini ham ko'ra olar ekan. Qisqa qilib aytganda, biz umuman barcha ranglar 3 ta asosiy rangdan kelib chiqishini bilamiz: qizil, yashil va ko'k. Oddiy odam ranglarni ushbu uchta tuslar aralashib, birlashgandagina ko'ra oladi. Veronikaning qobiliyati bundan ham o'tadi, ya'ni bu ranglarni tashkil qiluvchilar bir tusni alohida ilg'ay oladi. O'zini g'ayri oddiy qobiliyatiga qaramasdan, Sayder oddiy odam kabi ta'lim olishni davom ettirdi va orzuyiga erishdi. Bu asl ma'noda g'ayrioddiy qobiliyatdir.

Hozirda u Janubiy Germaniyada tish shifokori bo'lib ishlamoqda.

Odatda odam olti tilni o'zlashtira olishi va ulardan faqat uchtasidagina mukammal so'zlasha olishi mumkin. Qolganlarida esa ozgina xatolar bilan gaplashish yoki yozishishlari mumkin. Lekin ajabo – Garold Uilyam 58 ta tilni mukammal o'zlashtira olgan! Uilyam 1876 yilning 6 aprelida Yangi Zelandiyadagi Oklend shahrida dunyoga keldi. Bolaligida u hamma qatori oddiy bola bo'lib ko'rindi bir qarshda yoki kuzatishda uning qobiliyatini aniqlash mumkin emas edi. Biroq 7 yoshida u turli chet tillarni o'zlashtirishi kerak edi. Birinchilardan bo'lib o'zlashtirish uchun qiyin bo'lgan lotin tilini o'rgandi. Maktabga qadam qo'yayotganida Uilyam 10 ta tilni bilar edi. U Oklanddagi universitetda, so'ngra Myunhendagi universitetda tahsil oldi va 26 yoshida lingvistika (tilshunoslik yo'nalishi) bo'yicha falsafa doktori darajasiga erishdi. Otasi ruhoni bo'lgan Uilyams ham shu yo'lni tanladi va shu mavzuda ikkita kitob yozdi. U shuningdek jurnalist hamda Britaniya elchisining Rossiya ishlari bo'yicha maslahatchisi ham bo'lib ishlagan. Ba'zi guvohlarning aytishlaricha, u rus tilida ruslardan ham yaxshi so'zlasha olgan va yozgan. Garold Uilyamsning shuncha tillarni o'zlashtira olish qobiliyati – inson miyasining imkoniyatlari chegarasidan o'tib ketadi. Shu kungacha Uilyams kabi shu darajada ko'p tillarni bilgan bironta inson topilmagan. Bunga o'xshash misollarni yana keltirishimiz mumkin albatta, demak insonni bilimsizligi yoki bilimlarni o'zlashtira olmasligiga qarab uni kellajagi haqida fikr yuritishimiz no'to'g'ri.

Bundan xulosa chiqarishimiz mumkinki qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki ta'lim jarayonida bolani fanlarni o'zlashtirishi qobiliyatiga bog'liq albatta, lekin qobiliyat bu – bola fanni yaxshi o'zlashtirishi yoki yaxshi o'qiy olishi deyishimiz ozgina xato, bola ta'lim jarayonida albatta o'z qobiliyati namoyon qiladi. Buni anglash esa albatta pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatleraning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki qobiliyat bu psixologik xususiyat va har bir insonda qandaydir bir turi sifati mavjud bo'ladi va u pedagogik shart sharoitda rivojlanib boradi. Shuni inobatga olgan holda qobiliyatli insonlarda aniqlash ularni qobiliyat darajalarini rivojlantirish zamon talabidir. Diagnostika qilinmagan hamda rivojlantirilmagan qobiliyat insonga begona bir xususiyat bo'lib qolaveradi.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. Toshkent shahri, 29 aprel 2019 yil, PF-5712-son.
2. G'oziev.E. Ontogenez psixologiyasi o'quv qo'llanma Toshkent "NIF MSH" 2020
3. Davaetshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent 2002.
4. M.G. Davaetshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlanov, S.To'ychieva. «Yosh va pedagogik psixologiya» o'quv metodik qo'llanma Toshkent 2004 yil 12. Graficheskie metodo`v psixologicheskoy diagnostike. E.S. Romanova., O.F. Potyomkina-M., 2012.
5. Davletshin. M. Psixologiyadan asosiy tushunchalar.-T., 2017.
6. Mamedov K "Maktabgacha yoshidagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlariya" Toshkent . 2004 -yil.
7. Дилмуродова З. Развитие способностей детей младшего школьного возраста //Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 487-493.

8. Aliyeva M ning “Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish” magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent 2011-yil 70 bet.
9. Dilmurodova Zilola Davron qizi. (2023). BOLA QOBILIYATINI BARVAQT ANIQLASH MUHIM!. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7601468>
10. Dilmurodova, Z. (2023). Kichik maktab yoshidagio’quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning qobiliyat darajalarini aniqlash. ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ.
11. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. PEDAGOGS, 48(2), 49-51.
12. Roziqova, M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Interpretation and researches, 1(1).
13. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
14. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)